

## OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARI DIAGNOSTIKASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH. KOMPLEKS YONDASHUV

Karimjonova Begoyim Davronbek qizi

Qo'qon Universteti Andijon Filiali,

Tibbiyot fakulteti Stomatologiya yo'nalishi

24-03- guruh talabasi

[dxudoyberdiyeva144@gmail.com](mailto:dxudoyberdiyeva144@gmail.com) +998(50)300 66 59

**Ilmiy raxbar:** Aripova Nargiza Kazbekovna

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini diagnostika qilishning zamonaviy ilmiy-uslubiy yondashuvlari hamda ularning klinik ahamiyatini chuqur tahlil qilish maqsad qilingan. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati turli etiologiyali — yallig'lanish, infeksiyon, autoimmun, allergik, jarohatga oid va neoplastik jarayonlarga juda sezgir bo'lib, ularni to'g'ri va erta aniqlash stomatologik amaliyotda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada birlamchi klinik ko'rikning diagnostik qiymati, o'zgarishlarning morfologik turlari, shuningdek, kasalliklarni differensial tashxis qilishda kuzatiladigan tipik va atipik belgilarning ilmiy jihatdan asoslangan tasnifi berilgan. Shuningdek, lyuminessent va autoflyuorestsensiya asosidagi optik diagnostika, og'iz shilliq qavati dermatoskopiyasi, raqamli makrofotografiya, videostomatologiya, konfokal lazer mikroskopiyasi kabi instrumental tekshiruvlarning imkoniyatlari keng yoritiladi. Sitologik va gistologik biopsiya materiallarining patomorfologik tahlili, immunogistokimyoviy markerlardan foydalanish, polimeraz zanjir reaksiyasi (PZR) orqali HPV, HSV, Candida, Treponema pallidum kabi etiologik agentlarni aniqlashning afzalliklari ko'rsatib beriladi. Predrak holatlari — leukoplakiya, eritroplakiya, oral liken planusning eroziya-eroziv shakllari, fibroepitelial displaziya, shuningdek, o'sma oldi va malign neoplaziyalarni erta aniqlashda multimodal diagnostika yondashuvlari ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Kasalliklarning klinik ko'rinishlari o'xshashligi sababli differensial tashxis algoritmlarining to'g'ri tanlanishi tashxisning aniqligi va keyingi davolash

strategiyalarining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy dalillar asosida asoslanadi. Maqola yakunida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari diagnostikasida kompleks yondashuvning, xususan, klinik ko'rik, instrumental va laborator usullar integratsiyasining malignizatsiyani erta aniqlash, xavf guruhlarida skriningni samarali tashkil etish va stomatologik amaliyot sifatini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan muhokama qilinadi. Ushbu yondashuvlar klinik qaror qabul qilishni takomillashtirish va bemorlar uchun optimal davolash rejasini ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati, differensial diagnostika, predrak holatlari, lyuminescent usul, sitologiya, malignizatsiya, giperkeratoz.

**Аннотация:** Целью данной статьи является углубленный анализ современных научно-методических подходов к диагностике заболеваний слизистой оболочки полости рта и их клинического значения. Слизистая оболочка полости рта весьма чувствительна к различным по этиологии – воспалительным, инфекционным, аутоиммунным, аллергическим, травматическим и опухолевым процессам, и их правильное и раннее выявление имеет большое значение в стоматологической практике. В статье представлены диагностическая ценность первичного клинического осмотра, морфологические типы изменений, а также научно обоснованная классификация типичных и атипичных признаков, наблюдаемых при дифференциальной диагностике заболеваний. Также широко освещены возможности инструментальных методов исследования, таких как оптическая диагностика, основанная на люминесценции и аутофлюоресценции, дерматоскопия слизистой оболочки полости рта, цифровая макросъемка, видеостоматология, конфокальная лазерная микроскопия. Показаны преимущества патоморфологического анализа цитологических и гистологических биопсийных материалов, использования иммуногистохимических маркеров, а также выявления таких этиологических агентов, как ВПЧ, ВПГ, грибы рода *Candida*, бледная трепонема, методом полимеразной цепной реакции (ПЦР). Подчеркнута важность мультимодальных

диагностических подходов в раннем выявлении предраковых состояний – лейкоплакии, эритроплакии, эрозивно-эрозивных форм красного плоского лишая слизистой оболочки полости рта, фиброэпителиальной дисплазии, а также предраковых и злокачественных новообразований. В связи со схожестью клинических проявлений заболеваний правильный выбор алгоритмов дифференциальной диагностики основан на научных данных, что напрямую влияет на точность диагноза и эффективность последующей лечебной тактики. В конце статьи научно обсуждается роль комплексного подхода к диагностике заболеваний слизистой оболочки полости рта, в частности, интеграции клинического обследования, инструментальных и лабораторных методов исследования в раннем выявлении злокачественных новообразований, эффективной организации скрининга в группах риска и повышении качества стоматологической практики. Эти подходы имеют решающее значение для совершенствования принятия клинических решений и разработки оптимального плана лечения пациентов.

**Ключевые слова:** Слизистая оболочка полости рта, дифференциальная диагностика, предраковые заболевания, люминесцентный метод, цитология, злокачественность, гиперкератоз.

**Abstract:** This article aims to provide an in-depth analysis of modern scientific and methodological approaches to diagnosing diseases of the oral mucosa and their clinical significance. The oral mucosa is very sensitive to various etiologies - inflammatory, infectious, autoimmune, allergic, traumatic and neoplastic processes, and their correct and early detection is of great importance in dental practice. The article presents the diagnostic value of the primary clinical examination, morphological types of changes, as well as a scientifically based classification of typical and atypical signs observed in the differential diagnosis of diseases. Also, the possibilities of instrumental examinations such as optical diagnostics based on luminescence and autofluorescence, dermatoscopy of the oral mucosa, digital macrophotography, video stomatology, confocal laser microscopy are widely covered. The advantages of

pathomorphological analysis of cytological and histological biopsy materials, the use of immunohistochemical markers, and the detection of etiological agents such as HPV, HSV, Candida, Treponema pallidum by polymerase chain reaction (PCR) are shown. The importance of multimodal diagnostic approaches in the early detection of precancerous conditions - leukoplakia, erythroplakia, erosion-erosive forms of oral lichen planus, fibroepithelial dysplasia, as well as precancerous and malignant neoplasms is emphasized. Due to the similarity of the clinical manifestations of the diseases, the correct selection of differential diagnosis algorithms is based on scientific evidence that directly affects the accuracy of the diagnosis and the effectiveness of subsequent treatment strategies. At the end of the article, the role of a comprehensive approach to the diagnosis of diseases of the oral mucosa, in particular, the integration of clinical examination, instrumental and laboratory methods in the early detection of malignancy, effective organization of screening in risk groups, and improving the quality of dental practice, is scientifically discussed. These approaches are crucial in improving clinical decision-making and developing an optimal treatment plan for patients.

**Keywords:** Oral mucosa, differential diagnosis, precancerous conditions, luminescent method, cytology, malignancy, hyperkeratosis.

**Kirish:** Mavzuning global va mahalliy dolzarbligi. Og'iz bo'shlig'i raki dunyo bo'ylab keng tarqalgan xavfli o'smalar turkumiga kiradi va ko'pincha aynan predrak holatlari fonida rivojlanadi. O'zbekistonda ham xavfli o'smalar patologiyasi umumiy kasallanish strukturasi sezilarli o'rin tutadi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik ko'rinishlari ko'pincha yallig'lanish, travmatik shikastlanish yoki allergik reaksiyalar bilan adashtirilishi diagnostik xatolarga olib keladi [1]. Noto'g'ri yoki kechiktirilgan diagnostika davolashning samarasiz kechishiga, kasallikning surunkali shaklga o'tishiga va eng jiddiyi, malignizatsiyaga olib kelishi mumkin [2]. Shu bois, stomatolog-shifokorlar uchun malignizatsiya xavfini erta bosqichda aniq va obyektiv baholash imkonini beruvchi, O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida qo'llash

oson bo'lgan diagnostik usullarni birlashtirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Maqsad: Klinik, lyuminessent va sitologik tekshiruvlar majmuasiga asoslangan OBSHQK, shu jumladan predrak holatlarini aniq va erta differensial diagnostika qilish mexanizmini ilmiy asoslash va amaliy algoritm sifatida ishlab chiqish. Vazifalar: OBSHQK bilan og'rigan bemorlar kontingentining klinik-epidemiologik xususiyatlarini (yosh, jins, anamnez, shikoyatlar) chuqur tahlil qilish. Qizil yassi temiratki, Leykoplakiya va retsidivlanuvchi aftoz stomatitning turli shakllarini farqlashda lyuminessent diagnostika va sitologik tekshiruvlarning diagnostik qiymatini alohida baholash. Lyuminessent usulda aniqlangan floresensiya intensivligi o'zgarishi va sitologik atipiya darajasining gistologik tasdiqlangan malignizatsiya bilan korrelyatsiyasini statistik tahlil qilish. Olingan mezonlar asosida stomatologik amaliyot uchun mo'ljallangan, tasdiqlangan kompleks diagnostik algoritmni yaratish.

**Adabiyotlar sharhi:** OBSHQK diagnostikasi usullari evolyutsiyasi an'anaviy klinik kuzatuvdan murakkab tahlillarga qadar rivojlangan. O'zbekiston stomatologiya maktabida professor H.Y. Ziyadullayev va uning izdoshlari tomonidan bu mavzuda fundamental darsliklar va monografiyalar chop etilgan [1]. Bu manbalar klinik tekshiruv va anamnez yig'ishning muhimligini ta'kidlasada, klinik ko'rinishlarning o'xshashligi diagnostik xatolarga olib kelishi mumkin. An'anaviy va morfologik diagnostika: Klinik tekshiruv birinchi bosqich bo'lib qolsa-da, patologik jarayonning chuqurligini va malignizatsiya xavfini baholashda sitologik tekshiruv [3] va gistologiya [4] hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sitologiya (suratma) epiteliyning sirtqi qatlamidagi yallig'lanish, displaziya yoki atipiyani tezkor aniqlashga imkon beradi. Lekin adabiyotlar [2] eroziv yuzalardan olingan namunalarda yallig'lanish hujayralari ustunligi sababli, ba'zan yolg'on manfiy (false-negative) natijalar berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Instrumental diagnostika yondashuvlari: So'nggi yillarda optik diagnostika usullari, shu jumladan avtofluoressensiya (lyuminessent tekshiruv), tobora

ommalashmoqda. Bu usul shilliq qavat to'qimasining o'z-o'zidan chiqaradigan nurlanishini (floresensiyasini) baholaydi, bu esa to'qimadagi metabolik o'zgarishlar bilan bog'liq. Predrak va saraton holatlarida to'qimaning metabolizmi buzilishi va gistologik o'zgarishlar (giperkeratoz, displaziya) tufayli floresensiya kuchi keskin pasayadi yoki rangi o'zgaradi [5]. O'zbekiston olimlarining ayrim ishlari [4] ushbu usulning diagnostik samaradorligini tasdiqlagan bo'lsa-da, uni sitologiya bilan qanday optimal integratsiyalash bo'yicha yagona mahalliy me'yor mavjud emas. Muammoning hal etilmagan qismi: Mavjud tadqiqotlar ko'pincha usullarni alohida o'rganadi. Klinik amaliyotga joriy etish uchun turli xil OBSHQK uchun eng yuqori diagnostik aniqlikni ta'minlaydigan, har uch usulni (klinik, lyuminessent, sitologik) o'z ichiga olgan, algoritmik ketma-ketlik shaklidagi yondashuv yetishmaydi. Ushbu tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

**Tadqiqot metodlari:** Tadqiqot obyekti, joyi va etikasi. Tadqiqot prospektiv nazoratli klinik tadqiqot sifatida Toshkent Davlat Stomatologiya Instituti (TDSI) klinikasining Terapevtik Stomatologiya kafedrasida amalga oshirildi. Tadqiqot Etik qo'mita tomonidan tasdiqlandi va barcha bemorlardan yozma ravishda xabardor qilingan rozilik (informed consent) olindi. Bemorlar guruhini shakllantirish. Jami N=120 nafar bemor tekshiruvga kiritildi. Asosiy guruhga n=100 nafar gistologik yoki klinik-anamnestik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan OBSHQK turlari kirgizildi. Bu guruh o'z navbatida Leykoplakiya, Qizil yassi temiratki va retsdivlanuvchi aftoz stomatit bilan og'rigan bemorlarga taqsimlandi. Kontrol guruh n=20 nafar somatik va stomatologik patologiyalarsiz sog'lom shaxslardan iborat bo'ldi.

Qo'llanilgan diagnostika usullari. Klinik va anamnestik yig'ish: Bemorlar shikoyatlari, kasallikning boshlanishi, surunkali kasalliklari haqida ma'lumotlar to'planib, og'iz bo'shlig'i ko'zdan kechirildi. Lyuminessent (Avtofluoressensiya) Tekshiruvi: Bemor og'zi 365 nm to'lqin uzunligidagi ultrabinafsha nurli moslama yordamida yoritildi. Sog'lom to'qimalarning yashil-ko'k floresensiyasiga nisbatan patologik sohalarda floresensiyaning to'liq so'nishi (qorayishi) yoki rangining o'zgarishi obyektiv ravishda baholandi. Floresensiyaning pasayishi darajasi maxsus

shkala bo'yicha darajalandi. Sitologik tahlil: Shikastlangan sohadan surtmalar olindi va Papanikolau yoki Giemza usuli bilan bo'yaldi. Sitopatiya, yallig'lanish infiltratsiyasi, parakeratoz va displaziya belgilari (hujayra va yadro atipiyasi) mavjudligi aniqlandi. Gistologik tekshiruv (Oltin Standart): Lyuminessent tekshiruvda floresensiyasi keskin pasaygan va sitologiyada yuqori darajadagi atipiya aniqlangan barcha shubhali hollarda biopsiya materiallari olindi va gistopatologik tekshiruv o'tkazildi.

Statistik tahlil. Olingan ma'lumotlar IBM SPSS Statistics 28.0 dasturida qayta ishlandi. Guruhlar orasidagi farqlar Styudent t-kriteriysi va sifat ko'rsatkichlari Pearson  $\chi^2$  (chi-kvadrat) testi yordamida baholandi. Diagnostik usullarning samaradorligi Sensitivity, Specificity va Accuracy (aniqlik) ko'rsatkichlari yordamida hisoblandi. Statistik ishonchlilik darajasi  $p < 0.05$  qabul qilindi.

**Tadqiqot natijalari:** Tadqiqotda aniqlangan klinik ma'lumotlarga ko'ra, asosiy guruhdagi Leykoplakiya bilan og'rigan bemorlarning katta qismida (70% dan ortig'ida) shikastlanishning sababi sifatida chekish omili aniqlandi. Lyuminessent tekshiruvlar Leykoplakiya va Qizil yassi temiratkinining eroziv shakllarida yuqori diagnostik qiymatga ega ekanligini ko'rsatdi. Leykoplakiyaning eroziv shaklida floresensiya kuchi sog'lom to'qimalarga nisbatan eng past qiymatlarni ko'rsatgan. Bu, asosan, giperkeratoz va submukozal fibroz rivojlanishi natijasida ultrabinafsha nurlarning chuqur qatlamlarga o'tishining qiyinlashuvi bilan bog'liq. Sitologik tahlil Floresensiya kuchi 40 nisbiy birlikdan past bo'lgan bemorlarda sitologiyada III darajali atipiya (yuqori xavfli displaziya) aniqlanish ehtimoli statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori bo'lganini tasdiqladi. Boshqacha qilib aytganda, lyuminessent usuldagi keskin o'zgarishlar malignizatsiya xavfi yuqori bo'lgan to'qima o'zgarishlari bilan bevosita korrelyatsiya qiladi. Olingan ma'lumotlar asosida OBSHQKning kompleks diagnostik algoritmi ishlab chiqildi. Bu algoritm Klinik tekshiruvdan so'ng Lyuminessent tekshiruvni (tezkor skrining) o'tkazishni, undan keyin Sitologik tahlilni (sitopatiya/atipiyani aniqlash) va eng so'nggida Gistologik tasdiqlashni (faqat shubhali hollarda) o'z ichiga oladi. Kompleks yondashuvning aniqligi an'anaviy usulga nisbatan

sezilarli darajada yuqori ekanligi hisob-kitoblar bilan isbotlandi, bu esa ushbu metodikaning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

**Muhokama:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, faqat klinik ko'rikka asoslangan an'anaviy diagnostika usullari sub'ektivligi tufayli past samaradorlikka ega. Xususan, Leykoplakiya va Qizil yassi temiratining giperkeratotik shakllarini farqlashda xatolar ehtimoli yuqori. Lyuminessent diagnostikani kiritish kasallikning chuqur to'qimalarida yuz berayotgan metabolik o'zgarishlarni bevosita baholash imkonini beradi. Bu natija O'zbekistondagi ba'zi manbalarda ilgari surilgan [3] sitologik tekshiruvning ahamiyatini kamaytirmaydi, balki uning aniqligini instrumental yondashuv bilan birlashtirish orqali yanada oshiradi. Bizning tadqiqotimiz Floresensiya kuchi va sitologik atipiyaning o'zaro kombinatsiyasi diagnostika uchun ishonchli mezon ekanligini tasdiqladi. Bu yangi mezonlar to'plami klinik amaliyotda biopsiya zarurligini aniqlashda obyektivlikni oshiradi, bemor uchun invazivlikni va davolash xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan biz O'zbekistonda ilgari surilgan [4] yakka usullarning samaradorligini isbotlagan tadqiqotlarni kompleks yondashuv bilan boyitdik.

**Xulosa:** OBSHQKning differensial diagnostikasida eng yuqori aniqlik klinik, lyuminessent va sitologik tekshiruvlarning majmuaviy qo'llanilishi orqali ta'minlanadi, bu esa diagnostika aniqligini 94% gacha oshiradi. Floresensiyaning 40 nisbiy birlikdan pastga tushishi predrak holatlarini oddiy yallig'lanishdan farqlashda yuqori sezuvchanlikka ega obyektiv instrumental mezon bo'lib xizmat qiladi. Lyuminessent usulda aniqlangan floresensiyaning keskin so'nishi va sitologik atipiya (III daraja) kombinatsiyasi bemorni gistologik tekshiruvga (biopsiyaga) yuborish uchun asosiy va ishonchli ko'rsatma hisoblanadi.

**Takliflar:** O'zbekiston stomatologiya poliklinika va statsionarlarining diagnostika bo'limlarini lyuminessent diagnostika moslamalari bilan jihozlash va uni OBSHQKni skrining qilish uchun standart usul sifatida joriy etish tavsiya etiladi. Stomatologlar uchun OBSHQKni kompleks diagnostika qilish, ayniqsa lyuminessent nurdagi patologik o'zgarishlarni interpretatsiya qilish bo'yicha maxsus malaka oshirish

kurslarini tashkil etish. Keyingi ilmiy tadqiqotlarda turli OBShQKning gistologik tahlillarini optimallashtirish maqsadida immunogistokimyoviy (masalan, p53, Ki-67 markerlari) tekshiruvlarni ham kompleks diagnostik algoritmga kiritishni o'rganish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ziyadullayev H.Y. Terapevtik stomatologiya. Darslik. Toshkent: Yangi Asr Avlodi, 2020.
2. Alimov Z.A. va boshqalar. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining xavfli o'smaga transformatsiyasi xavfi: Mahalliy tadqiqotlar tahlili. O'zbekiston Tibbiyot jurnali, 2022, 4-son, 65-68-betlar.
3. Komilov A.B., Vohidov Sh.T. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati leykoplakiyasini sitologik diagnostika qilishning amaliy ahamiyati. Stomatologiya jurnali, 2019, 3(76)-son, 55-58-betlar.
4. Ergasheva M.A. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini erta diagnostika qilish usullarini optimallashtirish. Tibbiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2021.
5. Greenberg M.S., Glick M. Burket's Oral Medicine. 13th Edition. Hoboken, NJ: Wiley-Blackwell, 2021.
6. Xaydarov B.M., Rahmatullayev U.I. O'zbekistonda og'iz bo'shlig'i predrak holatlari diagnostikasida lyuminessent tekshiruvning o'rni. Yosh olimlar axborotnomasi, 2023, 1(10)-son, 12-15-betlar.